

ISMOIL AL-BUXORIYNING HADISLARINING INSON KAMOLOTIDAGI O'RNI

*University of management and Future
technologies universitetining Ps- 23\2-gurux*

**Mamatkulova Ro'zaxon
Raxmatullayeva Barno**

ANNOTATSIYA: Imom al-Buxoriy (asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy) (810.21.7, Buxoro — 870.31.8, Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'i) — islom olamining yirik mutafakkiri, buyuk muhaddis. Muhaddislar imomi, hadis ilmining sultoni deb ham yuritiladi.

Otasi Ismoil o'z davrining yetuk muhaddislaridan, Molik ibn Anasning shogirdi va yaqinlaridan biri bo'lib, tijorat ishlari bilan shug'ullangan. Onasi taqvodor, diyonatli, oqila ayol edi. Otasi vafot etgach, uning tarbiyasi validasi zimmasiga tushgan. U 5—6 yoshidan islomiy ilmlarni, Muhammad (sav)ning hadislarini o'rganishga va yodlashga kirishadi.

Taniqli muhaddislar — al-Doxiliy, Muhammad ibn Salom al-Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf al-Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy va boshqalardan saboq olgan. Azaldan muhaddislar safarga chiqishdan oldin o'z yurtidagi roviylardan birorta ham hadis qoldirmasdan yozib olgan bo'lishi va shundan keyingina boshqa shahar yoki mamlakatga safarga o'tlanishi mumkin edi. Buxoriy 16 yoshga yetguncha, o'z yurtidagi mashoyixlardan hadis eshitib, yozib olib, xalifalikning turli viloyatlari tomon yo'l oladi.

825 yili Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Makkaga kelib, haj ibodatini ado etadi. Onasi va akasini Buxoroga qaytarib, o'zi Makkada qoladi. Bu yerda faoliyat ko'rsatayotgan mashoyixlarning ilmiy yig'inida qatnashadi. 827 yili Madinaga boradi. Madinadagi mashhur ulamolardan Ibrohim ibn al-Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamza va boshqalar bilan muloqotda bo'lib, ulardan hadislar bo'yicha saboq oladi. Bu vaqtda Rasulullohning sahobalari, sahobalarning izdoshlari turli mamlakatga tarqab ketgan edilar. Shunday sharoitda Muhammad(as)ning hadislarini to'plash turli shahar va mamlakatlarga borishni taqozo qilar edi.

Bir necha tarixchilarning ta'kidlashicha, Buxoriy Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jiddaga qilgan rihlati 6 yil davom etgan. So'ng Basra, Kufa va Bag'dodga safar qiladi. Shom va Misrga o'tadi. Bundan tashqari Xuroson, Marv, Balx, Hirot, Nishopur, Ray, Jibol kabi shaharlarda bo'lib, bu shaharlardagi olimlardan saboq oldi va hadislar to'pladi. Xorijiy yurtlardagi safardan keyin Buxoroga qaytgach, hadis ilmini targ'ib etishga kirishadi. Ul zotning bu sa'yu ko'shishlari bu vaqtda Buxoroda hukmdorlik

qilgan Holid ibn Ahmad az-Zuhliya xush kelmaydi. Shu sababli Buxoriy Buxoroni tark etib, Poykendga, keyin esa Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'iga kelib yashashga majbur bo'ladi va shu yerda vafot etadi.

Buxoriy butun faoliyati davomida ilm kishilarini ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlagan. Tijorat kilganda topgan daromadidan oyiga besh yuz dirhamdan faqiru miskinlarga, ilm toliblariga sarflagan. Shaxsiy hayotida ortiqcha dabdaba va sarf-xarajatlarga yo'l qo'ymagan.

Buxoriy umr bo'yi hadislarni to'plash va tizimga solish bilan shug'ullangan, ularni sahih (to'g'ri, ishonchli) va g'ayri sahih (xato, zaif)ga ajratgan. Bu ishni hadis roviylarining maishiy hayotlari, yashash joylari, tug'ilgan va vafot etgan sanalari, bir-birlari bilan qilgan o'zaro muloqotlarini o'rganish bilan bog'liq holda olib borgan. Buxoriy jami 600 mingga yaqin hadis to'plagan bo'lib, shundan 100 ming «sahih» va 200 ming «g'ayri sahih» hadisni yoddan bilgan. Buxoriy o'zining noyob qobiliyati, iqtidori, quvvai hofizasining o'ta kuchliligi bilan ilm ahllarini lol qoldirgan. Hadis ilmiga o'ta fidoyilik, aql-zakovatini baxshida etish Buxoriyga shon-sharaf keltirdi, uni islom dunyosining eng buyuk allomalaridan biri sifatida tanitdi.

Buxoriy 20 dan ortiq kitob tasnif etgan. Ulardan ayrimlari bizgacha yetib kelgan. Buxoriyning «Al-Jomi' as-sahih» («Ishonchli to'plam») deb nomlangan 4 jild (juz) dan iborat hadislar to'plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan hadis to'plamlari orasida eng ishonarli va mukammalidir. Asar bir qancha xorijiy tillarga tarjima qilingan. Shu jumladan o'zbek tiliga ham tarjima qilinib, 1991—96 ylarda 4 jildda nashr etildi.

Buxoriy yaratgan «Al-Adab al-mufrad» («Adab durdonalari») asari katta tarbiyaviy ahamiyatga molik benazir to'plamdir. 1322 hadis va xabar jamlangan bu asar Turkiya va Misrda bir necha marta chop etilgan. Uning o'zbekcha tarjimasini 1990 yili Toshkentda nashr qilingan. Roviylarning kunyalariga bag'ishlangan «Kitob al-kuna» («Kunyalar haqida kitob») 1940 yili Hindistonda chop etilgan. Buxoriyning «At-Ta'rix al-kabiyr» («Katta tarix») kitobi esa Turkiyada 9 jildda nashr qilingan. Asar qo'lyozmasining ba'zi qismlari Haydarobod kutubxonasida saqlanadi. Shuningdek «At-ta'rix as-sag'iy» («Kichik tarix») ham hadis tarixiga oid qimmatli asar hisoblanadi. Bu asar Hindiston va Qohirada chop etilgan. Buxoriy yaratgan «Kitob al-favoid» («Foydali ashyolar haqida kitob»), «Al-Jomi' al-kabiyr» («Katta tayanch»), «Xalq af'ol al-ibod», («Alloh bandalari ishlarining tabiati»), «Al-Musnad al-kabiyr» («Katta tayanch»), «At-tafsir al-kabiyr» («Katta tafsir»), «Kitob al-hiba» («Xayr-ehson haqida kitob») va boshqa asarlarning ba'zilar bizgacha yetib kelmagan, ba'zilar jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma'lumotlar bor.

Buxoriyning boshqa asarlari orasida «Tafsir al-Qur'on» («Qur'on tafsiri») kitobini ham alohida ta'kidlash kerak. Buxoriy asarlari musulmon dunyosining barcha

madrasa va dorilfununlarida payg‘ambar (as) sunnatlari bo‘yicha asosiy darslik, qo‘llanma hisoblanadi. Jamoat arboblari, olimu ulamolar va din peshvolari Buxoriy asarlariga tayanib ish tutadilar. Buxoriy butun faoliyati davomida ilm kishilarini ma‘naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlagan. Tijorat kilganda topgan daromadidan oyiga besh yuz dirhamdan faqiru miskinlarga, ilm toliblariga sarflagan. Shaxsiy hayotida ortiqcha dabdaba va sarf-xarajatlarga yo‘l qo‘ymagan.

Buxoriy umr bo‘yi hadislarni to‘plash va tizimga solish bilan shug‘ullangan, ularni sahih (to‘g‘ri, ishonchli) va g‘ayri sahih (xato, zaif)ga ajratgan. Bu ishni hadis roviylarining maishiy hayotlari, yashash joylari, tug‘ilgan va vafot etgan sanalari, bir-birlari bilan qilgan o‘zaro muloqotlarini o‘rganish bilan bog‘liq holda olib borgan. Buxoriy jami 600 mingga yaqin hadis to‘plagan bo‘lib, shundan 100 ming «sahih» va 200 ming «g‘ayri sahih» hadisni yoddan bilgan. Buxoriy o‘zining noyob qobiliyati, iqtidori, quvvai hofizasining o‘ta kuchliligi bilan ilm ahllarini lol qoldirgan. Hadis ilmiga o‘ta fidoyilik, aql-zakovatini baxshida etish Buxoriyga shon-sharaf keltirdi, uni islom dunyosining eng buyuk allomalaridan biri sifatida tanitdi.

Buxoriy 20 dan ortiq kitob tasnif etgan. Ulardan ayrimlari bizgacha yetib kelgan. Buxoriyning «Al-Jomi’ as-sahih» («Ishonchli to‘plam») deb nomlangan 4 jild (juz) dan iborat hadislar to‘plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan hadis to‘plamlari orasida eng ishonarli va mukammalidir. Asar bir qancha xorijiy tillarga tarjima qilingan. Shu jumladan o‘zbek tiliga ham tarjima qilinib, 1991—96 ylarda 4 jildda nashr etildi.

Buxoriy yaratgan «Al-Adab al-mufrad» («Adab durdonalari») asari katta tarbiyaviy ahamiyatga molik benazir to‘plamdir. 1322 hadis va xabar jamlangan bu asar Turkiya va Misrda bir necha marta chop etilgan. Uning o‘zbekcha tarjimasi 1990 yili Toshkentda nashr qilingan. Roviylarning kunyalariga bag‘ishlangan «Kitob al-kuna» («Kunyalar haqida kitob») 1940 yili Hindistonda chop etilgan.

Buxoriyning «At-Ta’rix al-kabiyr» («Katta tarix») kitobi esa Turkiyada 9 jildda nashr qilingan. Asar qo‘lyozmasining ba’zi qismlari Haydarobod kutubxonasida saqlanadi. Shuningdek «At-ta’rix as-sag‘iyr» («Kichik tarix») ham hadis tarixiga oid qimmatli asar hisoblanadi. Bu asar Hindiston va Qohirada chop etilgan.

Buxoriy yaratgan «Kitob al-favoid» («Foydali ashyolar haqida kitob»), «Al-Jomi’ al-kabiyr» («Katta tayanch»), «Xalq af‘ol al-ibod», («Alloh bandalari ishlarining tabiati»), «Al-Musnad al-kabiyr» («Katta tayanch»), «At-tafsir al-kabiyr» («Katta tafsir»), «Kitob al-hiba» («Xayr-ehson haqida kitob») va boshqa asarlarning ba’zilari bizgacha yetib kelmagan, ba’zilari jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma’lumotlar bor. Buxoriyning boshqa asarlari orasida «Tafsir al-Qur’on» («Qur’on tafsiri») kitobini ham alohida ta’kidlash kerak.

Buxoriy asarlari musulmon dunyosining barcha madrasa va dorilfununlarida payg'ambar (as) sunnatlari bo'yicha asosiy darslik, qo'llanma hisoblanadi. Jamoat arboblari, olimu ulamolar va din peshvolari Buxoriy asarlariga tayanib ish tutadilar.

Kalit so'zlar.

Ma'naviyat, tarbiya, ta'lim–tarbiya, komil inson, hadis, axloq, odob-axloq, ma'naviy tarbiya. Mafkuraviy ziddiyatlar avj olgan bugungi globallashuv davrida internet va ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar ongini zaharlashga qaratilgan tahdidlar tobora avj olib bormoqda. Achinarlisi, buning natijasida ayrim yoshlar orasida ommaviy madaniyatga ergashish, axloqsizlik, jinoyatchilik yo'liga kirish, kashandalik, giyohvandlik, spirtli ichimliklarga ruju qo'yish, o'z joniga qasd qilish, milliy va diniy qadriyatlarga hurmatsizlik, ekstremizm va radikalizm kabi ijtimoiy illatlarga berilish holatlari kuzatilmoqda. Hozirgi vaqtda yoshlarni turli ijtimoiy illatlar, xususan, ekstremizm va terrorizm ta'siridan asrab-avaylashning eng muhim omillaridan biri bilim hisoblanadi.

Yoshlar qanchalik bilimli bo'lsa, ularning adashib yot yo'llarga kirib qolishlari ham shunchalik kam kuzatiladi. "Jaholatga qarshi ma'rifat" ezgu g'oyasining asosiy mohiyati ham shundan iborat. Biz yashab turgan bugungi davrda har qanday tahlikali fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ham dolzarb masala bo'lib turibdi. Johilga johillik bilan qarshilik ko'rsatish yonib turgan olovga yog' sepish bilan barobar. Negaki, jaholat botqog'iga botgan kishi o'zini tubanlikda emas, yuksakda deb hisoblaydi, unga kimdir jahl qilgani sari jazavasi qo'ziydi. Shu bois, jaholatga qarshi faqat ilm va ma'rifat bilan kurashish kerak.

Yoshlar tarbiyasida buyuk muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning sahih hadislarida o'quvchilar tarbiyasida eng muhim manbaa bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga kelajak avlodda ma'rifatli, bilimli, zakovatli, aqlli va idrokli, baxtli va saodatli, odob-axloqli, pok hamda iffatli, sabr matonatli bo'lib ulg'ayish tuyg'ulari shakllanib boradi. Imom al-Buxoriy hadislarida axloq masalasiga alohida e'tibor berilgan. Shuningdek, hadisi Sharifda «Ilm olmoqqa intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir» deyiladi. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning hadislarida insonning ma'naviy kamolga yetish uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks ettirilgan bo'lib, bular mehr-oqibat ko'rsatish, sahiylik, ochiq ko'ngillilik, ota-ona va kattalarga, qarindoshlarga g'amxo'rlik, hurmat, faqir-bechoralarga muruvvat, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik, o'zaro do'st, tinchtotuv bo'lish, ilmning qadr qimmatini ilm o'rganishga bo'lgan muhabbat va boshqalardan iboratdir. Bundan tashqari, ma'naviy kamolga yetish uchun inson o'zini qanday bo'lmasin yomon illatlardan tiyish, har qanday yaxshilik sari intilish kerakligi borasidagi pand-nasihatlarni ham axloqiy-ma'naviy tarbiyani rivojlantirishda o'z ifodasini topgan bo'lib ularning barchasi Qur'oni Karim

ko'rsatmalaridan kelib chiqadi va komil insonni shakllantirish mezonini sifatida hozirgi kunda yoshlarimizda ma'naviy tarbiya uchun yetakchi omillardan biri sanaladi

XULOSA

Hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblangan hijriy, uchinchi (milodiy to'qqizinchi) asrda hadisshunoslikda katta muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilgan, butun islom dunyosidagi eng nufuzli manbalar deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to'plamining (as-sihoh as-sitta) mualliflari yashab ijod qilganlar. Yana shunisi diqqatga sazovorki, mazkur olti muhaddisning deyarli hammasi Markaziy osiyolik bo'lib, ular: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim ibn al-Hajjoj). MUHADDIS MUHAMMAD IBN ISMOIL AL-BUXORIY ASARLARIDA HADIS ILMINING ORNI. Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy, Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoni, Imom Ahmad An-Naso'iy Imom Abu Abdulloh Muxammad ibn Yazib ibn Mojja kabi siymolardir. Shular ichidan "Hadis ilmida amir al-mo'miniyn degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan Imom al-Buxoriy alohida e'tiborga molik buyuk olimdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Xaydarov. S.A. (2025). Oilaviy tarbiyada va maktab tarbiyasida yuzaga keladigan risklar. 16-son. 9-11.
2. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
3. Хайдаров С. (2025). Oilalarda farzand tarbiyasiga ruhiy ta'sir etkazish. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
4. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
5. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
6. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissinı tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.
7. Khaydarov S.A. (2025). On analysis of family factors and social creativity issues in the study of the psychological portrait of educational institutions' leaders. Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology ISSN: 1001-4055 Vol. 46 No. 2.
8. Хайдаров С. (2025). Pedagogik risklarnı boshqarishning nazariy asoslari va globallashtirish jarayonidagi ahamiyati. 3 (9). 261-265.
9. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" T. : Davlat ilmiy nashriyoti, 2003.
10. Shovosil ZIYODOV, Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishning samarali modeli 3. Bobomurod ogli, O. B., & Abdulla ogli, J. B. (2023). IMOM AL BUXORIYNING HADISLARINI YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN ORNI.
11. Алимов У. Куръони Каримдан кейинги иккинчи мукаддас китоб. Имом ал-Бухорий сабоқлари. Тошкент. 2009. Б. 7.
12. Orifbekovna, S. L., & Muzaffarovna, M. Z. (2022). MUHADDIS MUHAMMAD IBN ISMOIL AL-BUXORIY ASARLARIDA HADIS ILMINING ORNI. Journal of new century innovations, 17(2), 51-55